V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ESHIMBETOV MUZAFFAR REYIMBAYEVICH

τ-SILLIQ IDEMPOTENT O‘LCHOVLARNING TAVSIFI

01.01.01 – Matematik analiz

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

UDK: 517.987.1

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ESHIMBETOV MUZAFFAR REYIMBAYEVICH

τ-SILLIQ IDEMPOTENT O‘LCHOVLARNING TAVSIFI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.PhD/FM908 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Zaitov Adilbek Ataxanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Aminov Behzod Rasul o‘g‘li fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 3-dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (190-raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 15-noyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil 15-noyabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U.Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda idempotent o‘lchovlar nazariyasining keng doiradagi muammolarni tafsivlash va tahlil qilishga kuchli vosita ekanligi ayon bo‘lib kelmoqda. Idempotent o‘lchovlar nazariyasiga yondashuvning juda yaxshi rivojlangan sifatli geometrik usullari mavjud bo‘lib, bu yondashuv odatda idempotent o‘lchovlar orqali aniqlanadigan matematik fizika, kompyuter ilmlari, optimallashtirish va boshqa muammolarga tayanib, fizika, informatsion texnologiya va iqtisodiyotdagi masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Undan tashqari τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlar nazariyasida olingan natijalar ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega ekanligidan idempotent o‘lchovlar nazariyasini tadqiq etish zamonaviy matematika sohalaridagi muhim va dolzarb vazifalardan biri ekanligi ko‘rinadi.

Hozirgi vaqtda ko‘pgina mualliflar limit og‘ishlarini idempotent jarayonlarning taqsimoti sifatida izohlab keladilar va natijalarni yarim martingallarning yarim maksingallarga taqsimoti bo‘yicha katta og‘ish yaqinlashishi ko‘rinishida ifodalaydilar. Masalan, A.Puhalskii kichik diffuziya hadlari bilan diffuziya jarayonlari uchun katta og‘ish prinsipini idempotent diffuziyaga taqsimotini katta og‘ishlarga yaqinlashishi sifatida ifodalaydi. Bugungi kunda, Markov jarayonlarining katta og‘ishlarga yaqinlashishi va keyingi sistemalarda hosil bo‘ladigan jarayonlar ko‘plab amaliy masalalarni tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda. Shu munosabat bilan τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlarini tavsiflash, bu o‘lchovlar fazolarining geometrik va topologik xossalarini o‘rganish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan tabiiy va aniq fanlarga e’tibor kuchaytirilmoqda. Idempotent o‘lchovlar nazariyasi juda yaxshi rivojlangan bo‘lib, xususan, yangi integral nazariya, yangi chiziqli algebra, spektral nazariya va funksional tahlilni o‘z ichiga oladi. Bu sahoda ko‘p me’zonli qarorlar qabul qilish, grafiklarda optimallashtirish, katta parametrli diskret optimallashtirish, kompyuter sistemalaridagi optimal loyiha va kompyuter media, ma’lumotlarni parallel qayta ishlashni optimal tashkil qilish, dinamik dasturlash, diskret hodisalar sistemalari, kompyuter ilmlari, diskret matematika, matematik mantiq va boshqalar kabi turli xil optimallashtirish masalalarini o‘z ichiga oladigan fanlarida keng tatbiqiga ega bo‘lgan idempotent o‘lchovlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlar bilan bog‘liq muhim natijalarga erishildi. “Funksional analiz, matematik fizika va statistik fizika” fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Bu vazifalar ijrosini ta’minlashda ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida τ-silliq idempotent o‘lchovlar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017-yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika taʼlimi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4387-son Qarori va 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi taʼlim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Idempotent oʻlchovlar nazariyasi matematika fanlarining bir tarmogʻi boʻlib, bu soha rivojlanishining muhim bosqichi J.Gunavardena muharrirligi ostida nashr qilingan “Idempotentlik” kitobida keltirilgan. Idempotent va tropik matematika rivojlanishining keyingi bosqichlari G.L.Litvinov va V.P.Maslov muharrirligi ostida nashr qilingan “Idempotent matematika va Matematik fizika” kitobida keltirilgan. Idempotent matematika odatdagi arifmetik amallarni yangi asosiy amallar toʻplami bilan almashtirishga, yaʼni sonli maydonlarni idempotent yarim xalqalar va yarim maydonlar bilan almashtirishga asoslangan. Bunga max-plus algebrasi deb ataluvchi $\mathbb{R}_{\max}$ yarim maydon oddiy misol boʻladi. Koʻplab mualliflar (S.K.Klin, S.-N.N.Pandit, N.N.Vorobyov, B.A.Carré, R.A.Kuningem-Green, K.Zimmermann, U.Zimmermann, M.Gondran, F.L.Bakkelli, G.Kohen, S.Gaubert, G.J.Olsder, J.-P.Quadrat, V.N.Kolokolsov va boshqalar) S.K.Klinning klassik maqolasidan soʻng kompyuter ilmlari va diskret matematikaning baʼzi amaliy masalalarini yechish uchun ushbu yarim halqalar ustida idempotent yarim halqalar va matritsalardan foydalanish keng rivojlandi.

Idempotent ehtimollik oʻlchovlar fazosi nisbatan yangi obʼekt hisoblanib, M.Zarichniy 2010 yilda idempotent ehtimollik oʻlchovlar fazosining kategorik xossalarini tadqiq qildi. Aslida idempotent ehtimollik oʻlchovlari avvalroq Oʻlchovlar nazariyasi, Funksional analiz, Ehtimollar nazariyasi, Topologiya va Kategoriyalar nazariyasida har xil nuqtai nazardan bevosita yoki bilvosita oʻrganilganini eʼtirof etish joiz. Idempotent ehtimollik oʻlchovlari fazolarini oʻrganish uni kompakt Hausdorf fazolarning sinfiga nisbatan kengroq topologik fazolar sinflarida, xususan, Tixonov fazolar sinfida oʻrganish masalasiga olib keladi. T.O.Banax va T.N.Radul Tixonov fazolarida ehtimollik oʻlchovlar boʻyicha tizimli tatqiqot oʻtkazgan. Ular oʻzlarining tatqiqotlarida ehtimollik oʻlchovlarning chiziqliligidan samarali foydalangan. Sh.Ayupov, A.Zaitov ishlarida τ-silliq kuchsiz additiv funksionallar nazariyasi ishlab chiqilgan va baʼzi kategorik xossalari oʻrganilgan. Koʻpgina mualliflar tomonidan olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, idempotent ehtimollik oʻlchovlar fazosining “yaxshi” xossalarini oʻrganish uchun klassik usullardan juda farq qiladigan usullar talab qilinadi. τ-silliq idempotent ehtimollik oʻlchovlari fazosini o‘rganish klassik masalalarning yangi talqinini vujudga keltiradi. Masalan, Chex ma’nosida to‘la fazolar Eduard Chex tomonidan 1937 yilda Berning kategoriyaviy teoremasini isbotlash uchun kiritilgan edi. O‘z-o‘zidan τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlari fazosining Chex ma’nosida to‘la bo‘lishi haqida savol tug‘iladi.

1909 yilda Vengriyalik matematik Friges Riss barcha uzluksiz chiziqli funksionallarni birlik kesmada Riman-Stilt’es integrallari bilan ifodalash mumkinligini isbotladi. Riss kiritgan belgilashdan foydalanib, Riss teoremasini quyidagicha yozish mumkin:

$$A[f(\omega)] = \int_0^1 f(\omega)\,d\alpha(\omega),$$

bu yerda α birlik kesmada o‘zgarishi chegaralangan funksiya. Yuqoridagi tenglik Rissning ifodalash haqidagi teoremasi sifatida nomlanadi. 1938 yilda rossiyalik matematik Andrey Markov Rissning bu yutug‘ini kompakt bo‘lmagan intervallarga davom ettirdi. Shundan uch yil o‘tgach, 1941 yilda Yapon-Amerikalik matematik Shizuo Kakutani mazkur teoremani abstrakt kompakt Hausdorf fazolarda isbotladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tekshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi funksional tilda aniqlangan τ-silliq idempotent o‘lchovlarni to‘plam funksiya tilida aniqlangan τ-silliq idempotent o‘lchovlar orqali tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

an’anaviy (chiziqli) o‘lchovlarning τ-silliqligi (yoki τ-additivligi) me’zoniga o‘xshash idempotent o‘lchovlarning τ-silliqligi me’zonini aniqlash;

τ-silliq idempotent o‘lchovlarning funksional tavsifini topish;

to‘plam funksiyasi sifatida idempotent o‘lchovlar fazosi va uzluksiz funksiyalarning max-plus chiziqli fazosining max-plus qo‘shma fazosi orasidagi izomorfizm bo‘yicha Riss ifodalashining muqobilini o‘rnatishdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti: τ-silliq idempotent o‘lchov, τ-maksitiv idempotent o‘lchov, o‘lchovli funksiyalar, Chex ma’nosida to‘la fazolar.

Tadqiqot predmeti. Matematik analiz, funksional analiz, o‘lchovlar nazariyasi, topologiya, idempotent analiz.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida matematik analiz, funksional analiz, o‘lchovlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

berilgan to‘plam funksiyasi uchun uning davomi va cheklanishi idempotent o‘lchov bo‘lishi va bu amallarning kompozitsiyasi ayniy akslantirish bo‘lishi isbotlangan;

berilgan kompakt Hausdorf fazosining ochiq to‘plamlaridan foydalanib idempotent ehtimollik o‘lchovlar to‘plamida biror topologiyaning bazasi bo‘ladigan sistema aniqlangan va kompakt Hausdorf fazo uchun hosil bo‘lgan idempotent ehtimollik o‘lchovlarning topologik fazosi ham kiritilgan bu topologiyaga nisbatan kompakt Hausdorf fazo bo‘lishi isbotlangan;

τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlarning fazosi Chex ma’nosida to‘la bo‘lishi uchun berilgan Tixonov fazosi Chex ma’nosida to‘la bo‘lishi zarur va yetarli ekanligi isbotlangan;

to‘plam funksiyasi sifatida idempotent o‘lchovlar fazosi va uzluksiz funksiyalarning max-plus chiziqli fazosining max-plus qo‘shma fazosi orasidagi izomorfizm bo‘yicha Riss ifodalash teoremasining muqobili isbotlangan va Tixonov fazosidagi τ-silliq idempotent o‘lchovlarning to‘plam funksiya sifatidagi tavsifi olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiyada olingan natijalar va foydalanilgan usullarni oliy ta’lim muassasalari magistrantlari va tayanch doktorantlari uchun maxsus kurslarda o‘qitish mumkin. Shuningdek, olingan natijalar iqtisodiy masalalarni hal qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Matematik analiz, funksional analiz, haqiqiy o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi va o‘lchovlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar qat’iy matematik mulohazalarga tayanib isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati τ-silliq idempotent o‘lchovlarning ba’zi kategorik xossalarini tekshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati τ-silliq idempotent o‘lchovlarning ba’zi kategorik xossalarini tavsiflash imkonini bergani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. τ-silliq idempotent o‘lchovlarning tavsifi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

berilgan to‘plam funksiyasining davomi va cheklanishi idempotent o‘lchov va bu amallarning kompozitsiyasi ayniy akslantirish bo‘lishi tavsifidan A-OT-2021-108 raqamli “Orolbo‘yi mintaqasining atrof-muhit va ekologik holatini monitoring qilish va prognozlashning axborot-tahliliy dasturiy mahsulotini yaratish” nomli ilmiy loyihada atmosferada zararli aralashmalarning tarqalish jarayonining matematik modeli va hisoblash algoritmlarini matematik tahlil qilishga oid masalalarni yechishda foydalanilgan (Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 24-avgustdagi ma’lumotnomasi, O‘zbekistan). Dissertatsiya natijalari grant doirasida paydo bo‘lgan optimallashtirish va optimal boshqarish masalalarini tahlil etishda yuzaga kelgan muammolarini hal qilishga xizmat qilgan;

τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlarning fazosi Chex ma’nosida to‘la bo‘lishidan Rossiya ilmiy Jamg‘armasining 24-21-00278-sonli “Qavariq geometriya muammolarida operator usullari” granti tomonidan qo‘llab quvvatlangan ilmiy tadqiqotlar doirasida foydali texnik vosita sifatida ishlatilgan. (K.L.Xetagurov nomidagi Shimoliy Osetiya davlat universitetining 2024 yil 3 oktyabrdagi ma’lumotnomasi, Rossiya). Idempotent ehtimollik o‘lchovlari fazosining topologik xossalari Hausdorf topologik fazosi hosil qilgan kompaktda uzluksiz funksiyalar fazosida aniqlangan chiziqli va additiv ortogonal operatorlarni analitik tasvirlash masalasini hal qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami

10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida, shuningdek 5 ta ma’ruza tezislari ilmiy konferensiya materiallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, o‘nta paragrafga bo‘lingan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 84 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muhim tushunchalar”** deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, unda dissertatsiya mavzusini to‘la yoritish uchun zarur bo‘lgan asosiy ta’riflar va muhim faktlar keltirilgan.

Birinchi paragrafda τ-algebra va τ-silliq idempotent o‘lchovlar uchun asosiy ta’riflar va faktlar keltirilgan.

Ω ixtiyoriy to‘plam bo‘lib, $\mathcal{E}$ sistema $\varnothing$ ni o‘z ichiga olgan Ω ning qism to‘plamlari sistemasi, $\mathcal{P}(\Omega)$ esa Ω ning barcha qism to‘plamlari sistemasi va $\overline{\mathbb{R}}_+ = [0,+\infty) \cup \{+\infty\} = [0,+\infty]$ bo‘lsin. $\mathfrak{A}$ orqali yo‘naltirilgan to‘plamni, Δ orqali esa ixtiyoriy indekslar to‘plamini belgilaymiz.

1-ta’rif. *Agar* $\mu : \mathcal{P}(\Omega) \to \overline{\mathbb{R}}_+$ *to‘plam funksiya*

1. $\mu(\varnothing) = 0$*;*

2. ixtiyoriy $A, B \in \mathcal{P}(\Omega)$ *uchun* $\mu(A \cup B) = \max\{\mu(A), \mu(B)\}$*;*

3. Ω *to‘plamning qism to‘plamlarining ixtiyoriy* $\{A_\alpha : \alpha \in \mathfrak{A}\}$ *o‘suvchi to‘ri uchun*

$$\mu\Big(\bigcup_{\alpha\in\mathfrak{A}} A_\alpha\Big) = \sup_{\alpha\in\mathfrak{A}}\{\mu(A_\alpha)\}$$

shartlar bajarilsa, u holda μ *to‘plam funksiyasi* Ω *da idempotent o‘lchov deb ataladi.*

Agar $\mu(\Omega) = 1$ *bo‘lsa, u holda* μ *idempotent o‘lchov* Ω *da idempotent ehtimollik o‘lchov deb ataladi.*

2-ta’rif. *Agar 1-ta’rifning shartlariga qo‘shimcha ravishda* $\mathcal{E}$ *sistema elementlarining har bir* $\{F_\alpha : \alpha \in \mathfrak{A}\}$ *kamayuvchi to‘ri uchun*

$$\mu\Big(\bigcap_{\alpha\in\mathfrak{A}} F_\alpha\Big) = \inf_{\alpha\in\mathfrak{A}}\{\mu(F_\alpha)\}$$

shart o‘rinli bo‘lsa, u holda μ idempotent o‘lchov Ω da $\mathcal{E}$ ga nisbatan τ-silliq (yoki τ-additiv) idempotent o‘lchov yoki qisqalik uchun, $\mathcal{E}$-idempotent o‘lchov deyiladi.

Ikkinchi paragrafda o‘lchovli funksiyaning va idempotent integralning ta’riflari va ularning xossalari berilgan. Bundan tashqari, idempotent integralning asosiy xossalarining to‘liq isboti ham bayon qilingan.

Endi idempotent fazolardagi o‘lchovli funksiyalarni qaraylik. $\mathcal{E}_1$ and $\mathcal{E}_2$ sistemalar mos ravishda, ixtiyoriy Ω_1 va Ω_2 to‘plamlarning qism to‘plamlari sistemasi bo‘lib, bu sistemalarning har biri $\varnothing$ ni o‘z ichiga olsin. $f:\Omega_1 \to \Omega_2$ funksiya uchun Ω_1 ning qism to‘plamlari sistemasini

$$f^{-1}(\mathcal{E}_2) = \left\{ f^{-1}(B) : B \in \mathcal{E}_2 \right\}$$

ko‘rinishda aniqlaymiz.

3-ta’rif. *Agar har bir $A \in \mathcal{E}_2$ uchun $f^{-1}(A) \in \mathcal{E}_1$ bo‘lsa, u holda $f:\Omega_1 \to \Omega_2$ funksiya $\mathcal{E}_1 / \mathcal{E}_2$-o‘lchovli deb ataladi.*

$f:\Omega_1 \to \Omega_2$ funksiya uchun Ω_2 to‘plamdagi μ' to‘plam funksiyasini $\mu'(A) = \mu\left(f^{-1}(A)\right)$, $A \subset \Omega_2$ kabi aniqlaymiz. μ' to‘plam funksiyasi f funksiyaga nisbatan μ ning obrazi deb ataladi va $\mu \circ f^{-1}$ kabi belgilanadi.

Endi idempotent o‘lchovga nisbatan idempotent integral tushunchasini keltiramiz. (Ω, μ) juftlik idempotent o‘lchovli fazo bo‘lib, buning uchun $\mu(\Omega) < \infty$ bo‘lsin. Biz $\infty \cdot 0 = 0$ deb qabul qilamiz.

4-ta’rif. O*‘lchovli $f:\Omega \to \overline{\mathbb{R}}_+$ funksiya uchun μ ga nisbatan f funksiyaning idempotent integralini*

$$\int_{\Omega}^{\oplus} f d\mu = \sup_{t \in \overline{\mathbb{R}}_+} \left\{ t \cdot \mu\left\{ \omega \in \Omega : f(\omega) \geq t \right\} \right\}$$

orqali aniqlaymiz. $A \subset \Omega$ uchun $\int_{A}^{\oplus} f d\mu = \int_{\Omega}^{\oplus} f \chi_A d\mu$ deb olamiz.

Uchinchi paragrafda ba’zi umumiy topologik tushunchalar va teoremalar keltirilgan.

Agar Ω Tixonov fazosi va $\beta\Omega \setminus \Omega$ to‘ldirma $\beta\Omega$ Stoun-Chex kompaktifikatsiyada F_σ-to‘plam bo‘lsa, u holda Ω topologik fazo Chex ma’nosida to‘la deyiladi. Lokal kompakt fazolar Chex ma’nosida to‘la bo‘ladi, ammo teskarisi o‘rinli emas. To‘g‘ri chiziqning qism fazosidagi topologiya bilan barcha irratsional sonlar fazosi lokal kompakt bo‘lmagan Chex ma’nosida to‘la fazoga misol bo‘ladi. Chex-to‘lalik G_δ-qism to‘plamlarga va yopiq qism to‘plamlarga nisbatan bog‘langan.

Dissertatsiyaning **“Idempotent o‘lchovlarning davom ettirishlari va cheklanishlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uchta paragrafdan tashkil topgan. Birinchi paragrafda τ-silliq idempotent o‘lchovlarning ayrim kengaytmalari uchun ularning τ-silliq va τ-maksitiv bo‘lishlari isbotlangan. So‘ngra, Luzin ma’nosidagi o‘lchovli ixtiyoriy funksiyaning teskarisi va har bir τ-silliq idempotent o‘lchovning kompozitsiyasi yana τ-silliq idempotent bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Faraz qilaylik, ξ_i, $i=1,2,\ldots$ sistemalar Ω ning qism to‘plamlari sistemalari bo‘lib, ularning har biri $\varnothing$ ni o‘z ichiga olsin. Ω ning qism to‘plamlaridan tuzilgan yangi ζ sistemani quyidagicha aniqlaymiz:

$$\zeta=\overset{\infty}{\underset{i=1}{\oplus}}\xi_i=\left\{\bigcup_{i=1}^{\infty}A_i : A_i\in\xi_i\right\}.$$

1-teorema. *μ idempotent o‘lchov $\zeta=\overset{\infty}{\underset{i=1}{\oplus}}\xi_i$ ga nisbatan τ-silliq bo‘lishi uchun μ idempotent o‘lchov har bir ξ_i, $i\in\mathbb{N}$ ga nisbatan τ-silliq bo‘lishi zarur va yetarli.*

Endi $\mathcal{E}_i$ va $\mathcal{E}'_i$ sistemalar mos ravishda, har biri $\varnothing$ ni o‘z ichiga olgan Ω va Ω' to‘plamlarning qism to‘plamlari sistemalari bo‘lsin, bu yerda $i\in\mathbb{N}$. So‘ngra, $\mathcal{E}$ va $\mathcal{E}'$ sistemalarni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\mathcal{E}=\overset{\infty}{\underset{i=1}{\oplus}}\mathcal{E}_i=\left\{\bigcup_{i=1}^{\infty}A_i : A_i\in\mathcal{E}_i\right\} \qquad \text{va} \qquad \mathcal{E}'=\overset{\infty}{\underset{i=1}{\oplus}}\mathcal{E}'_i=\left\{\bigcup_{i=1}^{\infty}A'_i : A'_i\in\mathcal{E}'_i\right\}.$$

2-teorema. *Agar $\mu:\mathcal{E}\to\overline{\mathbb{R}}_+$ to‘plam funksiyasi τ-maksitiv bo‘lsa, u holda $\mu':\mathcal{E}'\to\overline{\mathbb{R}}_+$ to‘plam funksiyasi ham τ-maksitiv bo‘ladi.*

3-teorema. *$\mathcal{T}$ sistema μ – $\mathcal{E}$-idempotent o‘lchov uchun siqilish bo‘lsin. Agar $f:\Omega\to\Omega'$ funksiya Luzin ma’nosida $(\mathcal{E},\mathcal{T})/\mathcal{E}'$-o‘lchovli bo‘lsa, u holda Ω' to‘plamda μ' ham $\mathcal{E}'$-idempotent o‘lchov bo‘ladi. Agar $T\in\mathcal{T}$ uchun $f(T)\cap F'\in\mathcal{E}'$ va $F'\in\mathcal{E}'$ bo‘lsa, u holda $f(T)$ sistema μ' uchun siqilish bo‘ladi.*

Ikkinchi paragrafda τ-maksitiv to‘plam funksiyalarning davom ettirishlari va cheklanishlari o‘rganilgan. So‘ngra davom ettirish va cheklash amallarining kompozitsiyasi ayniy akslartirish bo‘lishi isbotlangan.

Ω ixtiyoriy to‘plam, Ω_0 esa Ω ning qism to‘plami va $\mathcal{E}$ sistema Ω da τ-algebra bo‘lsin. Quyidagi sistemani olamiz:

$$\mathcal{E}_0=\{B\cap\Omega_0 : B\in\mathcal{E}\}.$$

Faraz qilaylik, $\mu:\mathcal{P}(\Omega_0)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ idempotent o‘lchov berilgan bo‘lsin. Uning davomini $e_{\Omega}^{\Omega_0}(\mu):\mathcal{P}(\Omega)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ quyidagi qoida bo‘yicha aniqlaymiz:

$$e_{\Omega}^{\Omega_0}(\mu)(B)=\mu(B\cap\Omega_0),\ B\subset\Omega.$$

$\mathcal{E}$ sistema Ω da τ-algebra va $\mathcal{E}_0=\{B\cap\Omega_0 : B\in\mathcal{E}\}$, μ esa Ω da $\mathcal{E}$-idempotent o‘lchov bo‘lsin. μ ning $r_{\Omega_0}^{\Omega}(\mu)$ cheklanishini quyidagi qoida bo‘yicha aniqlaymiz:

$$r_{\Omega_0}^{\Omega}(\mu)(A)=\inf\{\mu(C) : C\in\mathcal{E}, C\cap\Omega_0=A\},\ \ A\in\mathcal{E}_0.$$

Endi $IM(\Omega)$ orqali Ω to‘plamning barcha qism to‘plamlar sistemasi $\mathcal{P}(\Omega)$ da aniqlangan barcha idempotent o‘lchovlar to‘plamini va $M^{\tau}(\Omega)$ orqali esa $\mathcal{E}$ – τ-algebrada aniqlangan barcha τ-maksitiv to‘plam funksiyalarini belgilaymiz.

1-tasdiq. *$\mathcal{E}$ sistema Ω da τ-algebra, Ω_0 esa Ω ning qism to'plami va $\mathcal{E}_0=\{B\cap\Omega_0 : B\in\mathcal{E}\}$ bo'lsin. $r^{\Omega}_{\Omega_0}\circ e^{\Omega_0}_{\Omega} : M^{\tau}(\Omega_0)\to M^{\tau}(\Omega_0)$ kompozitsiya $M^{\tau}(\Omega_0)$ da ayniy akslantirish, ya'ni*

$$r^{\Omega}_{\Omega_0}\circ e^{\Omega_0}_{\Omega} = id_{IM(\Omega_0)}.$$

1-izoh. *$\mathcal{E}$ sistema Ω da τ-algebra, Ω_0 esa Ω ning qism to'plami, va $\mathcal{E}_0=\{B\cap\Omega_0 : B\in\mathcal{E}\}$ bo'lsin. $e^{\Omega_0}_{\Omega}\circ r^{\Omega}_{\Omega_0} : M^{\tau}(\Omega)\to M^{\tau}(\Omega)$ kompozitsiya $e^{\Omega_0}_{\Omega}\circ r^{\Omega}_{\Omega_0} = id_{IM(\Omega)}$ tenglikni qanoatlantirmaydi.*

Masalan, $\Omega=\{0,1,2\}$ va $\Omega_0=\{0,1\}$ bo'lsin. $\mathcal{E}=\mathcal{P}(\Omega)$ orqali Ω ning barcha qism to'plamlari sistemasini belgilaymiz. Biz $\mu:\mathcal{P}(\Omega)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ to'plam funksiyani quyidagicha aniqlaymiz: agar $2\in B$ bo'lsa, $\mu(B)=1$ va agar $2\notin B$ bo'lsa, $\mu(B)=0$. Endi $B=\{0,2\}\subset\Omega$ deb olaylik. U holda

$$e^{\Omega_0}_{\Omega}\left(r^{\Omega}_{\Omega_0}(\mu)\right)(B) = r^{\Omega}_{\Omega_0}(\mu)(B\cap\Omega_0) = \inf\{\mu(C) : C\in\mathcal{E}, C\cap\Omega_0 = B\cap\Omega_0=\{0\}\} =$$
$$=\inf\{\mu(\{0\})\} = \mu(\{0\}) = 0 \neq 1 = \mu(B).$$

Demak, $e^{\Omega_0}_{\Omega}\circ r^{\Omega}_{\Omega_0} \neq id_{IM(\Omega)}$.

$\mathcal{E}$ sistema Ω da τ-algebra, Ω_0 esa Ω ning qism to'plami, va $\mathcal{E}_0=\{B\cap\Omega_0 : B\in\mathcal{E}\}$ bo'lsin. Quyidagi to'plamni qaraylik:

$$M^{*}_{\Omega_0}(\Omega) = \{\mu\in M^{\tau}(\Omega) : K\subset\Omega\setminus\Omega_0 \text{ bo'ladigan ixtiyoriy } K\in\mathcal{E} \text{ uchun } \mu(K)=0\}.$$

4-teorema. *$\mathcal{E}$ sistema Ω to'plamda τ-algebra, Ω_0 esa Ω ning qism to'plami, va $\mathcal{E}_0=\{B\cap\Omega_0 : B\in\mathcal{E}\}$ bo'lsin. U holda*

1. $e^{\Omega_0}_{\Omega}\left(M^{\tau}(\Omega_0)\right)\subset M^{*}_{\Omega_0}(\Omega)$.

2. $e^{\Omega_0}_{\Omega}\circ\left(r^{\Omega}_{\Omega_0}\mid_{M^{*}_{\Omega_0}(\Omega)}\right) : M^{*}_{\Omega_0}(\Omega)\to M^{*}_{\Omega_0}(\Omega)$ kompozitsiya $M^{*}_{\Omega_0}(\Omega)$ ayniy akslantirish, ya'ni

$$e^{\Omega_0}_{\Omega}\circ\left(r^{\Omega}_{\Omega_0}\mid_{M^{*}_{\Omega_0}(\Omega)}\right) = id_{M^{*}_{\Omega_0}(\Omega)}.$$

Uchinchi paragrafda τ-maksitiv idempotent o'lchovlarning davom ettirishlari va cheklanishlari, idempotent o'lchovlar fazolari orasidagi akslantirishlar o'rganilgan.

Ixtiyoriy Ω_1 va Ω_2 to'plamlarni qaraylik. $\mathcal{E}_2$ sistema Ω_2 ning qism to'plamlari sistemasi bo'lsin. $f:\Omega_1\to\Omega_2$ akslantirish uchun quyidagi sistemani olamiz:

$$f^{-1}(\mathcal{E}_2)=\{f^{-1}(B) : B\in\mathcal{E}_2\}.$$

$f:\Omega_1\to\Omega_2$ akslantirish uchun $IM(\Omega_1)$ to'plamdan $IM(\Omega_2)$ to'plamga akslantirishni $M(f)$ orqali belgilab, uni quyidagi qoida bo'yicha aniqlaymiz:

$$M(f)(\mu)(B)=\mu\left(f^{-1}(B)\right),\ B\subset\Omega_2.$$

Ω_2' to‘plam Ω_2 ning qism to‘plami, $\Omega_1=f^{-1}\left(\Omega_2'\right)$ va $\mu\in IM\left(\Omega_1\right)$ bo‘lsin.

Ushbu

$$e_{\Omega_2}^{\Omega_2'}\left(M(f)(\mu)\right)(A)=\mu\left(f^{-1}\left(A\cap\Omega_2'\right)\right),\ A\subset\Omega_2$$

formula orqali aniqlangan $e_{\Omega_2}^{\Omega_2'}\left(M(f)(\mu)\right):\mathcal{P}(\Omega_2)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ to‘plam funksiyasini qaraymiz.

$\mathcal{K}=\left\{B\cap\Omega_2' : B\in\mathcal{E}_2\right\}$ bo‘lsin. U holda $f^{-1}(\mathcal{K})=f^{-1}(\mathcal{E}_2)$.

2-tasdiq. *Agar μ idempotent o‘lchov Ω_1 da $f^{-1}(\mathcal{E}_2)$ ga nisbatan τ-silliq bo‘lsa, u holda $e_{\Omega_2}^{\Omega_2'}\left(M(f)(\mu)\right)$ to‘plam funksiyasi Ω_2 da $\mathcal{E}_2$ ga nisbatan τ-silliq idempotent o‘lchov bo‘ladi.*

$\mu\in IM\left(\Omega_1\right)$ idempotent o‘lchov berilgan bo‘lsin. Ushbu

$$r_{\Omega_2'}^{\Omega_2}\left(M(f)(\mu)\right):\mathcal{P}\left(\Omega'\right)_2\to\overline{\mathbb{R}}_+$$

to‘plam funksiyasini

$$r_{\Omega_2'}^{\Omega_2}\left(M(f)(\mu)\right)(A)=\inf\left\{\mu\left(f^{-1}(C)\right):C\in\mathcal{E}_2, C\cap f\left(\Omega_1\right)=A\right\}$$

qoida bo‘yicha aniqlaymiz, bu yerda $A\subset\Omega'_2=f\left(\Omega_1\right)$.

3-tasdiq. *Agar μ idempotent o‘lchov Ω_1 da $f^{-1}(\mathcal{E}_2)$ ga nisbatan τ-silliq idempotent o‘lchov bo‘lsa, u holda $r_{\Omega_2'}^{\Omega_2}\left(M(f)(\mu)\right)$ to‘plam funksiyasi Ω_2' da $\mathcal{K}$ ga nisbatan τ-silliq idempotent o‘lchov bo‘ladi.*

5-teorema. *$\mu\in M^{\tau}\left(\Omega_1\right)$ bo‘lishi uchun $r_{\Omega_2'}^{\Omega_2}\left(M(f)(\mu)\right)\in M^{\tau}\left(f\left(\Omega_1\right)\right)$ bo‘lishi zarur va yetarli.*

Dissertatsiyaning **“τ-silliq idempotent o‘lchovlarning tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida berilgan to‘plamda aniqlangan idempotent o‘lchovni uning havzasida aniqlangan idempotent o‘lchov deb qarash mumkinligi isbotlangan. Berilgan kompakt Hausdorf fazosining ochiq to‘plamlaridan foydalanib idempotent ehtimollik o‘lchovlar to‘plamida biror topologiyaning bazasi bo‘ladigan sistema aniqlangan. Undan tashqari, Ω kompakt Hausdorf fazo uchun hosil bo‘lgan $I(\Omega)$ da topologik fazo ham kiritilgan bo‘lib, uning kompakt Hausdorf fazo bo‘lishi isbotlangan.

Ω kompakt Hausdorf fazo va $\mathfrak{B}(\Omega)$ esa Ω ning Borel qism to‘plamlar sistemasi bo‘lsin. Quyidagicha tushuncha kiritamiz.

5-ta’rif. *Agar $\mu:\mathfrak{B}(\Omega)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ to‘plam funksiyasi*

1. $\mu(\varnothing)=0$*;*

2. ixtiyoriy $A,B\in\mathfrak{B}(\Omega)$ *uchun* $\mu(A\cup B)=\max\left\{\mu(A),\mu(B)\right\}$*;*

3. $\bigcup_{\alpha\in\mathfrak{A}} A_\alpha \in \mathfrak{B}(\Omega)$ *bo'ladigan ixtiyoriy* $\{A_\alpha : \alpha\in\mathfrak{A}\}\subset\mathfrak{B}(\Omega)$ *o'suvchi to'r uchun*

$$\mu\Big(\bigcup_{\alpha\in\mathfrak{A}} A_\alpha\Big)=\sup_{\alpha\in\mathfrak{A}}\{\mu(A_\alpha)\}$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda μ *to'plam funksiyasi* Ω *da idempotent o'lchov deyiladi.*

Biz Ω to'plamdagi barcha idempotent o'lchovlar to'plamini $IM(\Omega)$ orqali belgilaymiz va quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$I(\Omega)=I_{\mathfrak{B}}(\Omega)=\{\mu\in IM(\Omega):\mu(\Omega)=1\}.$$

1-misol. $\Omega=[0,1]$ *bo'lsin.* $\mu:\mathfrak{B}(\Omega)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ *to'plam funksiyasini (CH da)*

$$\mu(A)=\begin{cases}0, \; agar \; |A|\le\aleph_0,\\ 1, \; agar \; |A|=c\end{cases}$$

kabi aniqlasak, u idempotent o'lchov bo'ladi.

Endi $I(\Omega)$ da topologiya kiritamiz. Ω kompakt Hausdorf fazo va $\mathcal{B}$ esa Ω da baza bo'lsin, $U_i\in\mathcal{B}$, $i=1,\dots,n$, va $\varepsilon>0$. Ixtiyoriy $\mu\in I(\Omega)$ idempotent ehtimollik o'lchov uchun quyidagi to'plamni aniqlaymiz:

$$\langle\mu;U_1,\dots,U_n;\varepsilon\rangle=\{\nu\in I(\Omega):|\nu(U_i)-\mu(U_i)|<\varepsilon, i=1,\dots,n\}.$$

Barcha shunday to'plamlarni yig'ib

$$\mathcal{B}(\mu)=\{\langle\mu;U_1,\dots,U_n;\varepsilon\rangle:U_i\in\mathcal{B}, i=1,\dots,n;\varepsilon>0\},\quad \mu\in I(\Omega)$$

oilani quramiz va quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\mathcal{B}_{I(\Omega)}=\bigcup_{\mu\in I(\Omega)}\mathcal{B}(\mu).$$

4-tasdiq. $\mathcal{B}_{I(\Omega)}$ *qurilgan oila* $I(\Omega)$ *da topologik nuqtali yaqinlashish uchun baza (yoki atroflar sistemasi) tashkil qiladi.*

6-teorema. Ω *kompakt Hausdorf fazo uchun* $I(\Omega)$ *topologik fazo kompakt Hausdorf fazo bo'ladi.*

$f:\Omega_1\to\Omega_2$ akslantirish uchun Ω_1 va Ω_2 kompakt Hausdorf fazolarning $I(f):I(\Omega_1)\to I(\Omega_2)$ akslantirishini

$$I(f)(\mu)(B)=\mu\big(f^{-1}(B)\big),\qquad B\in\mathfrak{B}(\Omega_2)$$

qoida bo'yicha aniqlaymiz.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida Ω Tixonov fazosi uchun Ω dagi τ-silliq idempotent ehtimollik o'lchovlarning $I_\tau(\Omega)$ fazosi o'rganilgan.

Ω Tixonov fazosi bo'lsin. Quyidagi to'plamni aniqlaymiz:

$$I_{\mathfrak{B}\tau}(\Omega)=\{\mu\in I(\beta\Omega):\forall F\in\mathfrak{B}(\beta\Omega), F\subset\beta\Omega\setminus\Omega \text{ uchun } \mu(F)=0\}.$$

Qulaylik uchun $I_{\mathfrak{B}\tau}(\Omega)$ to'plamni $I_\tau(\Omega)$ orqali belgilaymiz.

$I_\tau(\Omega)$ ning elementlari τ-silliq idempotent ehtimollik o'lchov deyiladi.

Endi har bir $\mu\in I_\tau(\Omega)$ uchun Ω ning barcha Borel qism to'plamlarining $\mathfrak{B}(\Omega)$ sistemasida aniqlangan $\tilde{\mu}:\mathfrak{B}(\Omega)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ to'plam funksiyasini

$$\tilde{\mu}(A)=\mu^*(A)=\inf\{\mu(B):B\in\mathfrak{B}(\beta\Omega),B\supset A\},\ \ A\in\mathfrak{B}(\Omega)$$

formula bo‘yicha aniqlaymiz.

1-lemma. *$\tilde{\mu}$ kattalik Ω da idempotent ehtimollik o‘lchov bo‘ladi.*

2-lemma. *Ω Tixonov fazo bo‘lsin. Agar $\mu\in I_\tau(\Omega)$ bo‘lsa, u holda $A\cap\Omega=B\cap\Omega$ tenglik o‘rinli bo‘ladigan ixtiyoriy ikkita $A,B\subset\beta\Omega$ Borel qism to‘plamlari uchun $\mu(A)=\mu(B)$ bo‘ladi.*

Ω_1, Ω_2 Tixonov fazolari va $f:\Omega_1\to\Omega_2$ uzluksiz akslantirish uchun quyidagi akslantirishni aniqlash mumkin

$$I_\tau(f)=I(\beta f)|_{I_\tau(\Omega_1)}:I_\tau(\Omega_1)\to I_\tau(\Omega_2).$$

7-teorema. *$f:\Omega_1\to\Omega_2$ akslantirishga $I_\tau(f):I_\tau(\Omega_1)\to I_\tau(\Omega_2)$ akslantirishni mos qo‘yuvchi I_τ amali mukammal akslantirishlar sinfini saqlaydi.*

8-teorema. *$f:\Omega_1\to\Omega_2$ akslantirishga $I_\tau(f):I_\tau(\Omega_1)\to I_\tau(\Omega_2)$ akslantirishni mos qo‘yuvchi I_τ amali joylashtirishlar sinfini saqlaydi.*

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida idempotent ehtimollik o‘lchovlarning $I_\tau(\Omega)$ fazosi Chex ma’nosida to‘la bo‘lishi uchun berilgan Ω Tixonov fazosi Chex ma’nosida to‘la bo‘lishi zarur va yetarli ekanligi isbotlangan.

9-teorema. *I_τ amali Tixonov fazolarining Chex-to‘laligini saqlaydi, boshqacha aytganda, agar Ω Chex-to‘la Tixonov fazosi bo‘lsa, u holda $I_\tau(\Omega)$ ham Chex-to‘la Tixonov fazosi bo‘ladi.*

10-teorema. *I_τ amali Borel to‘plamlarining aslini saqlaydi, ya’ni Tixonov fazolarining ixtiyoriy $f:\Omega_1\to\Omega_2$ uzluksiz akslantirishi va ixtiyoriy $A\subset\Omega_2$ Borel qism to‘plami uchun $I_\tau(f)^{-1}(I_\tau(A))=I_\tau(f^{-1}(A))$ tenglik o‘rinli bo‘ladi.*

11-teorema. *Ω_1 Tixonov fazosi va ixtiyoriy $A,\ B\subset\Omega_1$ qism to‘plamlari bo‘lib, ularning kamida bittasi Borel to‘plami bo‘lsin. U holda $I_\tau(A\cap B)=I_\tau(A)\cap I_\tau(B)$ o‘rinli.*

Uchinchi bobning to‘rtinchi paragrafida Ω kompakt Hausdorf fazo uchun Ω dagi Borel to‘plamlarning σ-algebrasida aniqlangan Ω dagi barcha idempotent ehtimollik o‘lchovlarning $I_{\mathfrak{B}}(\Omega)$ fazosi qurilgan. Shuningdek, Ω dagi uzluksiz funksiyalarning idempotent amallar kiritilgan to‘plamida aniqlangan barcha normalangan max-plus chiziqli funksionallarning $I_C(\Omega)$ fazosi qurilgan. Bu fazolar qurilishi natijasida Ω Tixonov fazosidagi τ-silliq idempotent o‘lchovlarning to‘plam funksiya sifatidagi tavsifi, ya’ni Riss ifodalanishining muqobili o‘rinli ekanligi isbotlangan.

Ω kompakt Hausdorf fazo va $\mathfrak{B}(\Omega)$ esa Ω ning Borel qism to‘plamlari sistemasi bo‘lsin.

6-ta’rif. *Agar $\nu:C(\Omega)\to\mathbb{R}$ funksional*

1. ixtiyoriy $\varphi,\psi\in C(\Omega)$ uchun $\nu(\varphi\oplus\psi)=\nu(\varphi)\oplus\nu(\psi)$;

2. har bir $c\in\mathbb{R}$ *va* $\varphi\in C(\Omega)$ *uchun* $\nu(c\odot\varphi)=c\odot\nu(\varphi)$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda $\nu:C(\Omega)\to\mathbb{R}$ *funksional max-plus chiziqli funksional deyiladi.*

$C(\Omega)$ dagi barcha max-plus chiziqli funksionallar to'plamini $C(\Omega)^{\oplus}$ orqali belgilaymiz. $\nu\in C(\Omega)^{\oplus}$ max-plus chiziqli funksional uchun ushbu

$$\langle\nu;\varphi_1,\ldots,\varphi_n;\varepsilon\rangle=\left\{\nu'\in C(\Omega)^{\oplus}:|\nu'(\varphi_i)-\nu(\varphi_i)|<\varepsilon, i=1,\ldots,n\right\}$$

to'plamlar sistemasi μ nuqtada Ω to'plamning bazasini tashkil qiladi. Bu yerda $\varphi_i\in C(\Omega)$, $i=1,\ldots,n$ va $\varepsilon>0$.

Quyidagi belgilashni kiritamiz:

$$I_C(\Omega)=\left\{\nu\in C(\Omega)^{\oplus}:\nu(0_\Omega)=0\right\}.$$

$I_C(\Omega)$ ni $C(\Omega)^{\oplus}$ ning qism fazosi sifatida qaraylik.

12-teorema. *Har bir normallangan max-plus chiziqli funksional* $\nu:C(\Omega)\to\mathbb{R}$ *uchun quyidagi qoida bo'yicha aniqlangan*

$$\mu(A)=\inf\left\{\nu(\varphi):\varphi\in C(\Omega),\varphi\geq\chi_A\right\},\quad A\in\mathfrak{B}(\Omega)$$

$\mu:\mathfrak{B}(\Omega)\to\overline{\mathbb{R}}_+$ *to'plam funksiyasi* Ω *da idempotent ehtimollik o'lchov bo'ladi.*

Quyidagi teorema dissertatsiyaning asosiy natijasidir.

13-teorema. Ω *kompakt Hausdorf fazo va normallangan max-plus chiziqli funksional* $\nu:C(\Omega)\to\mathbb{R}$ *uchun* $\mathfrak{B}(\Omega)$ *da shunday yagona* $\mu(\Omega)\neq 0$ *idempotent o'lchov mavjudki, quyidagi tenglik o'rinli:*

$$\nu(\varphi)=\ln\left(\frac{1}{\mu(\Omega)}\int_{\Omega}^{\oplus}e^{\varphi(\omega)}d\mu\right),\quad \varphi\in C(\Omega).$$

1-natija. *Har bir* Ω *kompakt Hausdorf fazo uchun* $I_{\mathfrak{B}}(\Omega)$ *va* $I_C(\Omega)$ *fazolar gomeomorf bo'ladi.*

Endi bu masalani kengroq fazolarda qaraylik. Ω Tixonov fazosi bo'lsin va $C_b(\Omega)$ orqali Ω aniqlangan haqiqiy-qiymatli chegaralangan uzluksiz funksiyalar to'plamini belgilaymiz.

14-teorema. Ω *Tixonov fazosi bo'lsin. Agar* $\tilde{\mu}(\Omega)\neq 0$ *to'plam funksiyasi* $\mathfrak{B}(\Omega)$ *da* τ*-silliq idempotent o'lchov bo'lsa, u holda ushbu integral*

$$\tilde{\varphi}\mapsto\ln\left(\frac{1}{\tilde{\mu}(\Omega)}\int_{\Omega}^{\oplus}e^{\tilde{\varphi}(\omega)}d\tilde{\mu}\right)$$

$C_b(\Omega)$ *fazoda normallangan max-plus chiziqli funksional bo'ladi. Aksincha, ixtiyoriy normallangan max-plus chiziqli funksional* $\tilde{\nu}:C_b(\Omega)\to\mathbb{R}$ *uchun* $\mathfrak{B}(\Omega)$ *da shunday yagona* $\tilde{\mu}(\Omega)\neq 0$ *bo'lgan* τ*-silliq idempotent o'lchov mavjudki, quyidagi tenglik o'rinli:*

$$\tilde{\nu}(\tilde{\varphi}) = \ln\left(\frac{1}{\tilde{\mu}(\Omega)}\int\limits_{\Omega}^{\oplus} e^{\tilde{\varphi}(\omega)} d\tilde{\mu}\right), \quad \tilde{\varphi} \in C_b(\Omega).$$

Sh.Ayupov, A.Zaitov ishlarida qisman tartibni saqlovchi τ-silliq funksionallar to‘plami $O_\tau(\Omega)$ kiritilgan edi. Ravshanki, $I_C(\beta\Omega)\bigcap O_\tau(\Omega) \neq \varnothing$.

Quyidagicha belgilash kiritamiz: $I_{C\tau}(\Omega) = I_C(\beta\Omega)\bigcap O_\tau(\Omega)$.

2-natija. *Ixtiyoriy* Ω *Tixonov fazosi uchun* $I_{C\tau}(\Omega)$ *va* $I_{\mathfrak{B}\tau}(\Omega)$ *fazolar gomeomorf bo‘ladi.*

XULOSA

Dissertatsiya ishi asosan τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlarning tavsifini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. τ-silliq idempotent o‘lchov uchun uning τ-silliq idempotent o‘lchov bo‘ladigan davomi topilgan. Ixtiyoriy berilgan to‘plam funksiyasi uchun uning davomi va cheklanishi τ-maksitiv bo‘lishi uchun to‘plam funksiyasining o‘zi τ-maksitiv bo‘lishi zarur va yetarli ekanligi isbotlangan. Shuningdek, davom ettirish va cheklash amallarining kompozitsiyasi ayniy akslantirish bo‘lishi ko‘rsatilgan.
2. Berilgan kompakt Hausdorf fazosining ochiq to‘plamlaridan foydalanib idempotent ehtimollik o‘lchovlar to‘plamida biror topologiyaning bazasi bo‘ladigan sistema aniqlangan. Undan tashqari, Ω kompakt Hausdorf fazo uchun hosil bo‘lgan $I(\Omega)$ topologik fazo ham kiritilgan bo‘lib, uning kompakt Hausdorf fazo ekanligi isbotlangan. Ω Tixonov fazosi uchun Ω to‘plamdagi τ-silliq idempotent ehtimollik o‘lchovlari $I_\tau(\Omega)$ fazosining topologik xossalari tadqiq qilingan.
3. Idempotent ehtimollik o‘lchovlarning $I_\tau(\Omega)$ fazosi Chex ma’nosida to‘la bo‘lishi uchun berilgan Ω Tixonov fazosi Chex ma’nosida to‘la bo‘lishi zarur va yetarliligi isbotlangan.
4. To‘plam funksiyasi sifatida idempotent o‘lchovlar fazosi va uzluksiz funksiyalarning max-plus chiziqli fazosining max-plus qo‘shma fazosi orasidagi izomorfizm bo‘yicha Riss teoremasining muqobili isbotlangan. Shuningdek, Ω Tixonov fazosidagi τ-silliq idempotent o‘lchovlarning to‘plam funksiya sifatidagi tavsifi olingan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

ESHIMBETOV MUZAFFAR REYIMBAYEVICH

DESCRIPTION OF τ-SMOOTH IDEMPOTENT MEASURES

01.01.01 – Mathematical analysis

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT – 2024

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at of Ministers of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.3.PhD/FM908.

Dissertation has been prepared at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Zaitov Adilbek Ataxanovich** doctor of physical and mathematical sciences, professor
Official opponents:	**Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich** doctor of physical and mathematical sciences, professor
	Aminov Bekhzod Rasul ugli doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place December 3, 2024 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky (is registered № 190). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of dissertation sent out on November 15, 2024 year
(Mailing report № 2 on November 15, 2024 year)

U.A.Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

U.U.Jamilov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. In the world, numerous scientific and applied research works are reduced to the study theory of idempotent measures has been proven to be a powerful tool for analyzing and understanding the behavior of a wide range of problems. There is a well-developed qualitative, geometric approach to theory idempotent measures that usually relies on the problems of mathematical physics, computer sciences, optimization and other as determined by the idempotent measures and it plays an important role in solving problems in physics, information technology and economics. Therefore, the results obtained in the theory of τ-smooth idempotent probability measures have both theoretical and practical significance and the theory of idempotent measures remains one of the important and urgent tasks in the aeras of modern mathematics.

At present, many authors interpret the limit deviabilities as distributions of idempotent processes and state the results in the form of large deviation convergence in distribution of semimartingales to semimaxingales. For example, A.Puhalskii formulate the large deviation principle for diffusion processes with small diffusion terms as large deviation convergence in distribution to an idempotent diffusion. Currently, to large deviation convergence of Markov processes and processes arising in queueing systems are widely used in analysis of many practical issues. In this regard, the study of geometric and topological properties of spaces of τ-smooth idempotent probability measures is considered a purposeful scientific research.

